# Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



# Rut: Sevgi hikoyasi


...tomonidan yozilgan: Edward Hughes
...tomonidan illustrasiya qilingan:
Janie Forest
Alastair P.
...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Lyn Doerksen



...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

BFC
PO Box 3
Winnipeg, MB R3C 2G1
Canada



©2020 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.






Agar barcha o'tgan ajdodlaringizni ko'rganingizda, ular qanday odam bo'lgani juda qiziq bo'lsa kerak. Isoning ajdodlaridan biri Mo'ablik, butlarga sig'inadigan Rut ismli ayol edi.

Rutning hikoyasi Shamshondan keyingi vaqtdan boshlanadi. O’sha vaqtlar odamlar Xudoga itoat etmay qo’yishgandi. Yerda ochlik boshlangandi. Meva va o’simliklar hosil bermay qo’ygandi. Odamlar esa ochlikdan azob chekishar edi.



3

Elimalek ismli odam oilasi bilan oziq-ovqat izlab, Baytlahmni tark etdi. U odamlari butlarga sig’inadigan Mo’ab yurtida joylashdi.



4

Mo’ab yurtida ham Elimalekka oson bo’lmadi. Bir oz vaqt o’tib, o’zi ham ikki o’g’li ham vafot etishdi.



Uning xotini Naima ikki kelini Rut va Orpa bilan yolg’iz qolib ketdi. Ikki kelin ham Mo’ablik edi.

5

Beva qolgan Naima uning yurtiga Xudo non berganini eshitdi. U qaytib ketishga qaror qildi. U ikki keliniga o’z yurtlarida qolib, boshqa turmush qurish kerakliklarini taklif qildi.



6

Orpa ota-onasining uyiga qaytib ketdi. Lekin qaytishga Rut rozi bo’lmadi. U qaynonasi Naima bilan qolishini xohladi.



7

Naimaning oldingi dugonalari u Baytlahmga qaytib kelganidan juda xursand bo’lishdi. Ammo Naima endi uni Naima, deb emas, balki Musibat, deb atashlarini istadi. Chunki uning boshiga ko’p qayg’u-alam tushgandi. Rutdan boshqa Naimani hech kimi yo’q edi.



8



Rut oldin butlarga sig'inar edi, ammo endi u Haqiqiy Tirik Xudoni bilib oldi. U non topish va qaynonasini boqish uchun ko'p ishlardi. Har kuni erta sahardan to kechgacha Rut dalada o'rimdan qolgan bug'doyni yig'ardi.

9



Dala ho'jayini Bo'az Rut haqida ko'p yaxshi gaplarni eshitdi. Bo'az ishchilariga dalada ko'proq bug'doy qoldirishlarini buyurdi. Bora-bora u Rutni yaxshi ko'rib qolayotgan edi.

10



Bo'az haqida Rut qaynonasi Naimaga aytib berdi. Naima buning uchun Xudoga hamdu sano aytdi. Axir Bo'az ularning qarindoshi edi.

11





Vaqt o'tib, Bo'az Rutga uylanmoqchi bo'ldi. Ammo Naima va Rutga Bo'zadan ham yaqin qarindosh bor edi. U Elimalekdan qolgan yerni olishni istardiyu, lekin Rutga uylanishni istamasdi. Qonun esa bu ikkisini ajratmas edi.

12

U vaqtlarda odamlar kelishuvdan keyin qo'l siqishmasdi. Ulardan biri olomom oldida etigini yechib, ikkinchisiga berishi kerak edi. Shunday qilib, Bo'az Rutga uylandi.



13

Bo'az va Rut o'g'il ko'rishdi. Uning ismini Obid qo'yishdi. Obid payg'ambar va shoh Dovudning katta bobolaridan biri bo'ldi.



14

Lekin bundan ham a'lorog'i Obid Iso Masihni o'tgan ajdodlaridan biri edi. Iso Dovud naslidan kelib chiqdi. U Shoshlar Shohi, odamzotning Najotkori bo'ldi.





Rut: Sevgi hikoyasi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Rut

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130






16 60



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16